

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

10.00.13 – “QIYOSIY VA CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK”
IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUSTAQIL IZLANUVCHILIKKA (DSc)
KIRISH IMTIHONI

DASTURI

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning chet mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarining tez sur'atda rivojlanib va mustahkamlanib borishi chet tillarini puxta o'qish va o'rgatishni taqozo qiladi. Chet tillarini puxta egallash zamonaviy ilm-fan, texnika va madaniyat yangiliklaridan xabardor bo'lish va shu sohalarga o'z hissasini ham qo'shish demakdir. Yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berilishi, ularni komil inson darajasiga olib chiqish maqsadidandir.

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrda "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 696-son hamda 2021-yil 24-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 606-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqildi.

10.00.13 – "Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik" ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchilar ushbu yo'nalishda nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlash uchun zaruriy zamonaviy chog'ishtirma tilshunoslikning asosiy muammolari bo'yicha o'z bilim va mahoratlarini namoyish etadilar, bu boradagi zamonaviy tilshunoslikdan xabardorligi, ularni amaliyotda qo'llashi haqidagi bilim va qarashlari darajasiga baho beriladi.

TALABGORLAR BILIMLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

- talabgorlar qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik mohiyatning manbai, tarixining asosiy bosqichlari, ushbu soxadagi yangi ilmiy yutuqlar borasida tasavvurga ega bo'lishi;
- qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik ixtisosligi filologik komparativistika, lingvistik komparativistika, adabiyotshunoslik komparativistikasi hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalarini bilan aloqasi borasida tasavvurga ega bo'lishi;
- qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik, chog'ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik masalalarini bilishi;
- ta'lim jarayonida ijtimoiy va pedagogik fanlar integratsiyasining asosiy qonuniyatlarini bilishi va amalda qo'llay olishi;
- hozirga qadar qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik masalalari yuzasidan bir qator olib borilgan ilmiy izlanishlar va mazkur sohalarga doir tadqiqotlar bo'yicha habardor bo'lishi;
- yangi ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron ko'rinishlari va ARM kataloglaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

I. Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik.

Qiyosiy tilshunoslik fan sifatida. Qiyosiy tilshunoslik fanining o'rganish obekti. Frants Bopp qiyosiy metod asoschisi. Yakob Grimm tarixiy metod asoschisi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. Naturalizm maktabi vakillarining qarashlari.

Chog‘ishtirma tilshunoslikning asosiy xususiyatlari. Alisher Navoiy chog‘ishtirma tilshunoslik asoschisi. Lingvistik interpretatsiya haqida ma’lumot bering.

1.Til va jamiyat.

Tayanch tushunchalar: til, jamiyat, tafakkur

Til faqat kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o‘rni, jamiyat taraqqiyoti yo‘llarini bilish, o‘rganish mumkin emas. Tilshunoslik yoki til bilimi (lingvistika til haqidagi mustaqil va aniq fan bo‘lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda o‘rganadi. Bu fan muayyan va umumiy tilshunoslik sohalaridan iborat.

2. Sinergetikaning tayanch tushunchalari.

Tayach tushunchalar: fluktuatsiya, attraktor, bifurkatsiya.

Ingliz olimi J.Uotsonning fikricha, yangi vino uchun yangi qadahga ehtiyoj bo‘lgani kabi, yangi nazariya ham yangi terminlarni talab qiladi. shu ma’noda sinergetika bilishning yangi ilmiy paradigmasi sifatida o‘z tushunchaviy apparatiga ega. Sinergetika bu va boshqa bir qator kategoriyalar yordamida rivojlanishning muayyan fundamental qonunlarini ifodalab beradi. Sinergetika kashf etgan ushbu qonuniyatlar dialektikaning universal rivojlanish qonuniyatlariga hamohangdir.

Sinergetika qonuniyatlaridan o‘rinli foydalana bilgan tadqiqotchi eng zamonaviy metodologiya asosida ish olib borayotgan bo‘lib, o‘z ilmiy sohasida katta ijodiy yutuqlarga erishishi mumkin.

3.Sinergetika va dialektika munosabati.

Tayanch tushunchalar: bifurkatsiya, koevolyutsiya, beqarorlik

Sinergetika yuzaga kelganiga 40 yildan ziyodroq vaqt bo‘lganiga qaramay, uni turlicha talqin qilish holatlari kuzatilmoqda. XX asrning 70-yillarida sobiq Ittifoqda dialektik materializmning mutloqligi - “metodologik monopolizm tufayli sinergetika keng e’tirof etilmadi.

Dialektika bilan nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasi, genetika orasidagi munosabat qanday bo‘lsa, sinergetika orasidagi munosabat ham shundaydir. Ya’ni dialektika tabiatning o‘zida va tabiat fanlarida, jamiyat fanlarida, texnika fanlarida, jumladan, sinergetika fanida bab-baravar namoyon bo‘ladi.”

4. Lingvosinergetikaning nazariy asoslari.

Tayanch tushunchalar: muvozanatsizlik, pog‘onaviylik

Sinergetikaning tilshunoslik fani bilan ijobiy hamkorligi natijasida psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalar kabi lingvosinergetika nomli yangi ilmiy yo‘nalish shakllanmoqda.

Bu yo‘nalishning yuzaga kelishida nafaqat sinergetikaning, balki tizimlar nazariyasi -sistemologiyaning ham alohida o‘rni bor.

5. Tilshunoslik va sinergetika.

Tayanch tushunchalar: tasodif, ochiqlik.

Til ham dinamik dissipativ tizim sanaladi. Bu jamiyat bilan parallel tarzda taraqqiy etadi. Davriy ravishda ayrim yangi o‘zgarishlarga ega bo‘ladi. Til jamiyat taraqqiyotining parometri sifatida zamon makon omillariga bog‘liq holda o‘z dinamik muvozanatini saqlaydi.

Tilning ochiq tizimi sifatida rivojlanishi uning mavjudlik va yashash shaklini, jamiyatdagi muhim atributlar bilan o'zaro ta'sirlashuvini va korporatsiyasini belgilaydi.

6. Til hodisalarining sinergetik tadqiqi.

Tayanch tushunchalar: Lingvosinergetika.

Tilda o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonini o'rganishda quyidagi parametrlarni e'tiborga olish zarur: 1. Geografik omil - makon omili 2. Xronologik omil - zamon, vaqt o'qi 3. Sotsiologik omil - ijtimoiy muhit, madaniyat, din, millat, yosh kabi sotsiol belgilar.

Eng so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, tilxat, tabiat hodisalari kabi o'z-o'zida tashkil qiluvchi, tajriyiy tarzda yangi strukturalarini o'zida namoyon etuvchi sinergetik paradigma asosida rivojlanuvchi murakkab tizim hisoblanadi.

7. Sinergetikaning ildizlari va o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: chiziqli, taraqqiyot, xaos, fluktuatsiya.

G.Xaken muharrirligi ostida SHtutgart universiteti nazariy fizika va sinergetika instituti olimlari tomonidan keyingi o'n besh yil ichida "Shpringer nashriyotida sinergetikaga oid 70 jildidan ko'proq kitob nashr etilgan bo'lib, hozirgi kunda 20 dan ortiq fan sohalari ilmiy tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda. Rossiyada sinergetika bo'yicha 400 dan ortiq monografiyalar, ilmiy risolalar chop qilingan.

8. Sinergetikaning tayanch tushunchalari.

Tayanch tushunchalar: fluktuatsiya, attraktor, bifurkatsiya.

Ingliz olimi J.Uotsonning fikricha, yangi vino uchun yangi qadahga ehtiyoj bo'lgani kabi, yangi nazariya ham yangi terminlarni talab qiladi. shu ma'noda sinergetika bilishning yangi ilmiy paradigmasi sifatida o'z tushunchaviy apparatiga ega. Sinergetika bu va boshqa bir qator kategoriyalar yordamida rivojlanishning muayyan fundamental qonunlarini ifodalab beradi. Sinergetika kashf etgan ushbu qonuniyatlar dialektikaning universal rivojlanish qonuniyatlariga hamohangdir.

9. Lingvokulturologiya va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: kulturologiya, lingvistik.

Lingvokulturologiya o'z ichiga ijtimoiylik nuqtayi nazardan har bir millatning lingvomadaniy masalalarini tadqiq etishni oladi. Unda tilshunoslik bilan ijtimoiy etnik guruhlar, millatlarning madaniy etiketi, urf-odatlar bo'yicha bog'lanuvchi hodisalar tahlil qilinadi.

10. Til hodisalariga sinergetik yondashuv.

Tayanch tushunchalar: sinergetika, lingvosinergetika

Sinergetikaning tilshunoslik fani bilan ijobiy hamkorligi natijasida psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalari kabi lingvosinergetika nomli yangi ilmiy yo'nalish shakllanmoqda.

Bu yo'nalishning yuzaga kelishida nafaqat sinergetikaning, balki tizimlar nazariyasi -sistemologiya ham alohida o'rni bor. Bunda V.fon Gumboldt, Boduen de Kurtene, F.de Sossyur, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, V.A.Zveginsev, B.A.Serebrennikov, Sh.Rahmatullaev, I.Qo'chqorto'ev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne'matov, R.Sayfullaeva, R.Rasulov,

O.Bozorov, A.Sobirov, M.Qurbonov, Sh.Shahobiddinova, Sh.Iskandarova, B.Mengliev kabi olimlarning til tadqiqidagi sistemali yondashuvlari lingvosinergetika uchun o'ziga xos impuls bo'lganini ta'kidlash lozim.

11. Antropolingvistika fan sifatida.

Tayanch tushunchalar: Antropologiya, tilshunoslik, antropolingvistika.

“Antropolingvistika”, ya'ni antropologik lingvistika fanining o'rganish obekti inson, uning nutqi va ruhiyatidan iborat. Inson tafakkuri hamda unga muvofiq til evalyutsiyasi (avvalo uning leksikasi)ni o'rganadi. Shuningdek, inson ongida ro'y berayotgan tarixiy o'zgarishlar, madaniyatning rivojlanishi, bilimlarning o'sishi tilning leksik sistemasida o'z aksini topishi fanning asosini tashkil etadi.

12. Inson va jamiyat

Tayanch tushunchalar: Inson. Jamiyat.

Inson falsafiy antropologiyaning predmeti sifatida. Gumanitar bilimlar kompleksining shakllanishida va takomillashuvida inson va uning ro'li muammosi. Inson va uning olamining ko'p sathliligi. Dunyo bir tekisda namoyon bo'lmaydigan koordinantlar sistemasi sifatida.

13. Til va jamiyat

Tayanch tushunchalar: inson, jamiyat, til.

Tilning jamiyatga, jamiyatning tilga tasiri. Tilning ijtimoiy vazifalari. Til va jamiyatning rivojlanish faoliyati, ularning bir-biriga bog'liqligi. Jamiyat rivojining tilga tasiri. Tilni o'stiruvchi vositalar va ularning jamiyat hayotidagi ro'li.

14. Inson va til

Tayanch tushunchalar: til, inson.

Til taraqqiyotida qonuniylik va sun'iylik. Tilning kommunikativ yaroqliligi, lug'aviy xususiyatlari, orfografik, punktuatsion, orfoepik xususiyatlari.

15. Til insonning instik xotirasi sifatida.

Tayanch tushunchalar: til, inson, xotira

Biologik mavjudot hisoblangan insonning taraqqiy etish jarayonida tilning fundamental ro'li. Tilning uch muhim vazifasi: a) tilning tajribani tartibga soluvchi va tuzuvchi shakl ekanligi; b) tilning muloqot vositasi va ijtimoiy meros ekanligi; v) til taraqqiyot va ijod quroli (sifatida) ekanligi. Olam individual manzarasining tilga bog'liqligi (V. Gumbo Id). Sepir-Uorfning etnolingvistik gipotezasi. Turli xalqlarda lisoniy streotiplarning ranglarni farqlashga bo'lgan ta'siri haqidagi psixolingvistik ma'lumotlar.

16. Dunyo tillari. Til oilalari. Oltoy tillar oilasi.

Tayanch tushunchalar: til oilalari, Oltoy tillar oilasi.

Qiyosiy-tarixiy metodning maydonga kelishi va tilshunoslikda til oilalarining bo'linishi. Til oilalari, Oltoy til 1 ar oilasi. Oltoy tillar oilasining asosiy guruhlari.

17. Turkiy tillar va xalqlar.

Tayanch tushunchalar: etnogenez, turkiy tillar.

Turkiy xalqlar haqidagi ilk tarixiy manbalar. Turkiy xalqlar etnogenezi. Turkiy qabilalar va ularning shakllanishi. Turkiy tillar va ularning shakllanishi, tasniflash muammolari. Turkiy yozuvlar. Qadimgi yodgorliklar.

18. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi.

Tayanch tushunchalar: til, jamiyat.

Tilning ijtimoiy faktorlari: nutq mazmuni, fikrning tuzilishi, adresant va boshqalar. Aloqa-aralashuv vositalari. O‘zbek aloqa-aralashuvida noverbal vositalar. O‘zbek muloqot shakllari.

19. Til va tafakkurning o‘zaro munosabati.

Tayanch tushunchalar: til, tafakkur.

Til tafakkur mahsuli ekan, uning ro‘yobga chiqishi inson ruhiyati bilan bog‘liq. Til tafakkurning voqe bo‘lishi. Til va inson ruhiyati. Til va tafakkur genetikasi tahlili.

20. Tarjimashunoslik.

Tayanch tushunchalar: xalqaro tillar, zullisonaynlik.

Sotsial-kommunikativ xususiyat va uning tarkibiy qismlari. Nutqiy holat. Ko‘p tillilik, ikki va uch tillilik sharoitida asosiy til masalasi.

10.00.13 – “Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (DSc) qabul imtihonini o‘tkazishda qo‘llanishi ko‘zda tutilgan nazorat savollari:

1. Tilshunoslikda germanistika, turkiyshunoslik, slavistika, komparativistika masalalari.
2. M.Qoshg‘ariy qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik asoschisi.
3. A.Navoiyning qiyosiy asnodagi «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida turk (o‘zbek) va fors tillarining muqoyasasi hamda uning turkiyshunoslikdagi o‘rni.
4. Tilshunoslikda germanistika va slavistika.
5. Sanskrit va Franz Bopp qiyosiy grammatikasi.
6. Wilhelm von Humboldt falsafasi.
7. August Schleicher ta’limoti.
8. Heymann Steinthal ta’limotida til va xalq psixologiyasi.
9. Jan Baudouin de Courtenay va Ferdinand de Saussure ta’limotida til sistemasi.
10. Bilish usullari va tilshunoslik metodlari.
11. Tilni o‘rganish metodologiyasi va metodlari.
12. Qiyosiy-tarixiy metod. Struktur metod va uning yo‘nalishlari.
13. Funktsional lingvistika.
14. Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari.
15. Distributiv tahlil metodi.
16. Transformatsiya metodi.
17. Tasviriy metodning asosiy usullari.
18. Paradigma usullari va paradigmatic metodika.
19. Oppozitsiya usuli.
20. Semantik maydon usuli.
21. Pozitsion usullar.
22. O‘zgartirishlar usuli va transformatsion metodika.
23. Qiyosiy tilshunoslikning paydo bo‘lish sabablari.
24. Lingvistik va nolingvistik tipologiya.

25. Qiyosiy tipologiyada kategoriyalash muammolari.
26. Tipologik kategoriyalar.
27. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi.
28. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari.
29. Tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning mavjudligi va ularning qiyosiy tipologiyada qo'llanilishi.
30. Qiyosiy tipologiyaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari va faktorlari.
31. Tillarning geneologik tasnifi, tillar qarindoshligi haqida ma'lumot.
32. Qiyosiy tipologiyaning asosiy parametrlari. Izomorfizm va allomorfizm xususiyatlari.
33. Qiyoslashda sinxron va diaxron yondashish.
34. Qiyosiy tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati.
35. Tilshunoslikda «shakldan ma'noga» va «ma'nodan shaklga» tamoyillarining qo'llanilishi.
36. Lingvistik tushunchalarning tilning turli yaruslarining o'lchov birliklari va konstituentlari orqali ifodalanishi.
37. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari.
38. Grammatik kategoriya haqida ta'limot.
39. Grammatik va mantiqiy kategoriyalar o'rtasidagi mutanosiblik.
40. Funksional-semantik kategoriyalar.
41. Tipologik ma'no va tipologik forma.
42. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va so'z turkumlariaro xususiyatlari.
43. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi.
44. Ifoda planidagi til tizimi o'lchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, yaruslararo sinonimligi hamda taskonomik masalalari.
45. Tilning leksik sathini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari.
46. Leksikani tizim sifatida qaralishi va tipologik yondashish imkoniyatlari.
47. Qiyosiy tipologiyaning leksikografiya, stilistika va til o'qitish metodikasi bilan uzviy bog'liqligi.
48. Kognitiv tilshunoslik haqida ta'limot.
49. Qiyosiy tipologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari.
50. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari.
51. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi va asosiy parametrlari.
52. Kognitiv fonetika.
53. Zamon va mayl kategoriyalari tipologiyasi.
54. Qiyosiy-tarixiy uslub tushunchasini paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi.
55. Qiyosiy-tarixiy jarayonlarni uyg'unligi.
56. Mifologik maktabning taraqqiyoti va uni qiyosiy-tarixiy uslubga bo'lgan ta'siri.
57. Turli millat afsonalari umumiyliigi. Madaniy-tarixiy maktab asoschilarini qiyosiy-tarixiy uslubga bo'lgan ta'siri.

58. Tarixiy-tipologik konvergenziya.
59. Lingvokulturologik aspektida soʻzlarning koʻp maʼnoliligi.
60. Qiyosiy-tarixiy metod. Struktur metod va uning yoʻnalishlari.
61. Funksional lingvistika.
62. Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari.
63. Distributiv tahlil metodi.
64. Transformatsiya metodi.
65. Tasviriy metodning asosiy usullari.
66. Distributiv metod.
67. Paradigma usullari va paradigmatic metodika.
68. Oppozitsiya usuli.
69. Semantik maydon usuli.
70. Pozitsion usullar.
71. Oʻzgartirishlar usuli va transformatsion metodika.
72. Qiyosiy tilshunoslikning paydo boʻlish sabablari.
73. Qiyosiy tipologiyada kategoriyalash muammolari.
74. Tipologik kategoriyalar.
75. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi.
76. Turli til sistemalarini qiyosiy oʻrganishning zamonaviy metodlari.
77. Tillarning geneologik tasnifi, tillar qarindoshligi haqida maʼlumot.
78. Qiyosiy tipologiyaning asosiy parametrlari. Izomorfizm va allomorfizm xususiyatlari.
79. Qiyoslashda sinxron va diaxron yondashish.
80. Qiyosiy tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati.
81. Lingvistik tushunchalarni tilning turli yaruslarining oʻlchov birliklari va tarjimada ifodalanishi.
82. Turli til sistemalarini qiyosiy oʻrganishning zamonaviy metodlari.
83. Grammatik kategoriya haqida taʼlimot.
84. Grammatik va mantiqiy kategoriyalar oʻrtasidagi mutanosiblik.
85. Funktsional-semantik kategoriyalar.
86. Tipologik maʼno va tipologik forma.
87. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va soʻz turkumlariaro xususiyatlari.
88. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi.
89. Ifoda planidagi til tizimi oʻlchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, ularning yaruslararo sinonimligi, ularning taskonomik masalalari.
90. Tilning leksik sathini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari.
91. Leksikani tizim sifatida qaralishi va tipologik yondashish imkoniyatlari.
92. Qiyosiy tipologiyaning leksikografiya, stilistika, tarjima nazariyasi va til oʻqitish metodikasi kabi fanlar bilan uzviy bogʻliqligi.
93. Kognitiv tilshunoslik haqida taʼlimot.
94. Qiyosiy tipologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari.

95. Turli til sistemalarini qiyosiy o'rganishning zamonaviy metodlari.
96. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi, uning asosiy parametrlari.
97. Antropolingvistika.
98. Paralingvistika.
99. Noverbal muloqot.
100. Metalingvistika.

10.00.13 – “Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha sinovlarni baholash mezonlari:

Mazkur ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovi mavjud o‘quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga og‘zaki ravishda javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda **4 tadan** savol bo‘lib, mazkur savollar nomzodlarning bakalavriat, magistratura va mustaqil izlanuvchilikda o‘qigan fanlari hamda tayyorlagan ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan tuziladi va jami javoblar «0» balidan «100» ballgacha baholanadi.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollar uchun maksimal **15 ball**dan, 4-savol uchun maksimal **55-ball** etib belgilangan.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollarga berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **12-15 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **8-11 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **4-7 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-5 ballgacha** qo‘yiladi.

№	Umumiy ball	Baho	Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
1.	12-15	A‘lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga;	14-15 13-14

			Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	12-13
2.	8-11	Yaxshi	Javoblar to'g'ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	10-11 9-10 8-9
3.	4-7	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	6-7 5-6 4-5
4.	0-4	Qoni-qarsiz	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan.	0-4

Variantdagi 4-savol yuzasidan berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to'liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to'liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo'lsa, **40-55 ballgacha** qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to'g'ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, **25-39 ballgacha** qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo'lsa **10-24 ballgacha** qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan bo'lsa **0-9 ballgacha** qo'yiladi.

№	Umumiy ball	Baho	Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
1.	40-55	A'lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to'liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	50-55 44-49 40-44
2.	25-39	Yaxshi	Javoblar to'g'ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	35-39 29-34 25-29
3.	10-24	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	20-24 15-19 10-14
4.	0-9	Qoni-qarsiz	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan.	0-9

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараqqиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т.: "Ўзбекистон", 2007.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 4 август.
3. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш назарияси. – Т.: Шарқ, 2010. – 262 б.
4. Арнолд И.В. Современные лингвистические теории взаимодействия и среды // Вопросы языкознания. – 1991. – №3. – С. 118-126.
5. Бодуэн де Куртенэ И.А. Языкознание или лингвистика 19 века // Избранные труды по общему языкознанию. В 2-х т. – М., 1963. – Т. 2.
6. Бок Ф.К. Структура общества и структура языка. Новое в лингвистике. Выпуск VII. Социолингвистика. Изд. – М.: Прогресс, 1975. – 1706 с.
7. Ван Дейк Т.А. Контекст и познание. Фреймы знаний и понимание речевых актов // Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 12-41.

8. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 36-298.
9. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – Москва: «Прогресс», 1985. – 452с.
10. Гумбольдт Вилгелм фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода // Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 142-159.
11. Дж.Лакофф. Женщины, огонь и опасность. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка. – Москва: «Прогресс», 1988. (George Lakoff. Classifiers as a reflection of mind. – In: “Noun classes and categorization”. Ed.by C. Craig. Amsterdam, 1986).
12. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка. – Москва: «Флинта», 2008. – 432 с.
13. Есперсен О. Философия грамматики. – М., 1958. – 400 с.
14. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Под ред. Б.А. Серебрянникова. – Москва: Наука. 1973. – С. 315 с.
15. Принципы описания языков мира. Под ред. В.А. Серебрянникова. – Москва: Наука, 1976. – 343 с.
16. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.
17. Сафаров Ш.С. Тил назарияси ва лингвометодология. – Т.: Bayoz, 2015.– 247 б.
18. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. Жиззах:Сангзор, 2006. 91б.
19. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – 318 б.
20. Соссюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики. Редакция Ш. Балли и А. Сеше. Екатеринбург: Издательство Уралского университета, 1999.– 432 с.
21. Степанов Ю.С. Константы. Словар русской культуры. Изд.2-е, испр.и доп. Академический проект. – М., 2001. – 990 с.